



**“GULISTON” ASARIDA QO‘LLANGAN “SIFATDOSH+FE’L”
MODELIDAGI QO‘SHMA FE’LLAR**

O.Turdaliyev, FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Dunyodagi ko'pgina tillarning leksikasida fe'l turkumi o'zining ma'nosi, grammatik shakllari, sintaktik vazifalari jihatidan boshqa so'z turkumlardan ajralib turadi. Y.A.Maslov ta'kidlaganidek, fe'l vaqt davomida sodir bo'luvchi harakatning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan so'z turkumi hisoblanadi. Bu o'rinda "harakat" so'zining keng ma'noda qo'llanganligini tushunish mumkin. Chunki fe'l turkumi nafaqat harakat, balki holat va jarayon kabilarni ham ifoda etib keladi. Shuningdek, fe'l turkumi analitik shakllarga boy ekanligi bilan ham boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Qo'shma fe'llarni mazkur turkum doirasidagi analitik holatga yaqqol namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Mazkur tipdagi qo'shma fe'llarda ism qism vazifasini sodda, prefiksli yoki qo'shma fe'llardan hosil qilingan sifatdosh bajaradi. Zamon nuqtayi nazaridan ism qism sifatida, asosan, o'tgan zamon sifatdoshlari, kamdankam o'rinlarda esa hozirgi zamon sifatdoshlari kelishi mumkin.*

Kalit so'z va iboralar: *fe'l turkumi, sodda fe'l, yordamchi fe'l, qo'shma fe'l, ism qism, sifatdosh.*

Biz ushbu maqolada "Guliston" asarida qo'llanilgan "sifatdosh+fe'l" modelidagi qo'shma fe'llarni tahlilga tortamiz. Mazkur modelda yasalgan qo'shma fe'llarning ism qismi sifatida, asosan, sodda fe'llardan hosil qilingan sifatdoshlar keladi. Quyida keltirilgan jumlada sodda fe'ldan hosil qilingan o'tgan zamon sifatdoshi qo'shma fe'lning ism qismi sifatida kelganligini kuzatish mumkin:

آلودن (*āludan*) – آلوده کردن (*ālude kardan*) – bulg'amoq;

لايق قدر بزرگوار پادشاه نباشد دست همت به مال چون من گدایی آلوده کردن که جو جو به گدایی فراهم آوردهام.

Lāyey-e yadr-e bozorgwār-e pādšāh nabāšad ke dast-e hemmat be māl-e čun man gadāyi ālude kardan ke jou jou be gadāyi farāham āwardeam (G. 268-bet).

Tarjiması: *Podshohning ulug'vorligiga men kabi bir gadoning gadolik qilib, misqollab to'plagan moliga himmat qo'lini bulg'ashi munosib bo'lmas.*

Mazkur usulda shakl jihatdan qo'shma fe'l yasalsa ham, ma'noviy jihatdan sodda fe'l semasi o'zgarmaydi. آلودن (*āludan-bulg'amoq*) – آلوده کردن (*ālude kardan –bulg'amoq*) fe'llari bir lug'aviy ma'noni ifoda etadi. Sodda fe'l qo'llanishi mumkin bo'lgan o'rinlarda ham qo'shma fe'llarni ishlatish klassik fors tilida ham faol bo'lganligi ko'rinadi. Fors tilining keyingi davrlarida esa bu holat yanada rivojlanganligini manbalar



tasdiqlaydi. Hozirgi zamon fors tilisi bilan qiyoslaydigan bo'lsa, sodda fe'llar deyarli yasalmaydi. Ularning o'rnida ham qo'shma fe'llardan foydalaniladi.

Sodda fe'llarning turli xil ko'rinishdagi shakllaridan foydalangan holda qo'shma fe'llar yasash usuli L.N.Kiselevaning ishlarida keltirilgan¹. Mazkur usul "sodda fe'llarni parchalash" (расщепление простых глаголов) deb nomlangan. Keyinchalik uning fikrlari o'zbek sharqshunos olimlari X.Z.Alimova, N.Xodiyeva, D.Ahmedova hamda M.Xabibovalar tomonidan rivojlantirilgan Xususan, X.Z.Alimova tomonidan mazkur usulda qo'shma fe'l yasashining 9ta usuli ko'rsatilsa,² N.Xodiyeva, D.Ahmedova hamda M.Xabibovalar 12ta usuli mavjudligini ta'kidlaydilar³.

Sifatdosh+fe'l modelida yasalgan qo'shma fe'llar ham ularning ishlarida mazkur usulni bir turi sifatida baholangan. Quyidagi jumlada "gaštan" sodda fe'lining sifatdoshlar bilan qo'shma fe'l yasashi kuzatiladi:

میر حاجت به نزدیک ترش روی
 که از رویش به نقد آسوده گردی.
 اگر گویی غم دل به کسی گوی
 که از رویش به نقد آسوده گردی.

Mabar hājat be nazdik-e torš ruy

Ke az xuy-e badaš farsude gardi.

Agar guyi yam-e del, bā kasi guy

Ke az ruyaš be nayd āsude gardi. (G. 256-bet).

Mazmuni: *Badqovoq odamning yoniga hojatingni aytib bormaginki, uning xunuk aftidan qarib ketasan, agar ko'nglingdagi dardlarni aytging kelsa, chehrasidan orom-u halovat topadigan insonga so'zla.*

Yuqorida keltirilgan ikki misoldan ko'rinadiki, sodda va prefiksli fe'llarni parchalash orqali yasalgan qo'shma fe'llarda ma'no qo'shma fe'lga asos bo'layotgan sodda fe'lining ma'nosiga to'g'ri keladi.

"Guliston" matnida *gaštan* va *kardan* sodda fe'llaridan tashqari yuqoridagi model asosida *dāštan* fe'li bilan ham yasalgan qo'shma fe'llarni ko'rish mumkin.

Mazkur holatda ham asosiy semantik yuk ism qism vazifasida kelayotgan sifatdoshga tushadi:

¹ Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – С. 83.

² Alimova X.Z. Dariy tilida so'z yasalişi. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2019. – B. 173; Ahmedova D.R. Fors tilida qo'shma fe'llarning yasaliş usullari va unda o'zlashma so'zlarning tutgan o'rni. // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2020. – № 5 (34). – B. 20-35. <https://doi.org/10.36078/1610694743>;

³ Ahmedova D.R., Xodiyeva N.T., Xabibullayeva M.R. Hozirgi zamon fors tilida sodda fe'l asosida tuzilgan qo'shma fe'llarning struktur tahlili. // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – B. 539. <https://cyberleninka.ru/article/n/hozirgi-zamon-fors-tilida-sodda-fe-l-asosida-tuzilgan-qo-shma-fe-llarning-struktur-tahlili/viewer>.





اگر بدین جامه که پوشیده دارم قناعت کنی دریغ نیست.

Agar bedin jāme ke pušide dāram, yanāat koni, dariy nist. 295-bet.

Tarjimasi: *Agar shu kiyib turgan kiyimimga qanoat qilsang, dariy emas.*

Yuqoridagi jumlada ham “*pušidan*” (*kiymoq, berkitmoq, yashirmoq*) fe'lining o'tgan zamon sifatdosh shaklining *dāštan* (*ega bo'lmoq*) fe'li bilan birikishi “*o'tgan zamon sifatdoshi+fe'l*” qolipidagi qo'shma fe'lni hosil qilgan. Lekin mazkur qo'shma fe'lda ham yuqoridagi misollar kabi umumiy hosila ma'no unga asos bo'layotgan sodda fe'lning ma'nosiga to'g'ri keladi:

pušidan – پوشیدن پوشیده داشتن – *kiymoq. pušide dāštan* – پوشیده داشتن

Quyidagi jumlada ham ushbu fe'lni “*kiymoq*” ma'nosida ko'rish mumkin:

اگر خدای عزوجل مرا پسری دهد جز بین خرقة که پوشیده دارم هرچه ملک منست ایثار درویشان کنم.

Agar xodā-ye az wa jall marā pesari dehad, joz in xerye ke pušide dāram, harče molk-e manast, isāre darwišān konam. (G. 454-bet).

Tarjimasi: *Agar xudoyi Az-u Jalla menga o'g'il bersa, shu kiyib turgan xirqamdan boshqa nimaiki narsam bo'lsa, darvishlarga nisor qilaman.*

Ammo *pušide dāštan* fe'lining boshqa “*yashirin tutmoq*”, “*pinhon tutmoq*”, “*sir tutmoq*” kabi ma'nolari ham borki, uni yuqoridagi jumlada kelgan fe'l bilan adashtirmaslik lozim:

درد دل پوشیده داری تا جگر پر خون شود
به که بادشمن نمائی حال زار خویش را. سعدی.

Dard-e del pušide dāri, tā jegar porxun šawad,

Beh ke bā došman namāyi hāl-e zār-e xišrā. (Sa'diy Sheroziy)

Mazmuni: *Dushmanga o'zingning xorligingni ko'rsatgandan ko'ra ko'nglingdagi dardingni to jigaring qon bo'lsa ham, pinhon tutganing yaxshiroqdir.*

Quyidagi jumlada esa prefiksli fe'ldan hosil qilingan o'tgan zamon sifatdoshi qo'shma fe'lning ism qismi vazifasida kelgan:

bar āwardan (بر آورده کردن) - *bar āwarde kardan* (بر آوردن) *ro'yobga chiqarmoq, ushaltirmoq.*

سخن آن فقیر وارسته مورد و پسند شاه قرار گرفت به او گفت : حاجت از من بخواه تا بر آورده کنم.

Soxan-e ān fayir-e wāraste moured-e pasand-e šāh yarār gereft, be u goft: “Hājati az man bexāh, tā bar āwarde konam”. (G. 268-bet).

Tarjimasi. *Podshohga bu faqir darveshning so'zi xush kelib, dedi: “Mendan biror bir tilak so'ra, to uni ro'yobga chiqaray”.*



Ba'zi o'rinlarda qo'shma fe'llardan hosil bo'lgan sifatdoshlar ham qo'shma fe'lning ism qismi vazifasida kelishi mumkin:

Del āzurdan (xafa qilmoq) – del āzurde šodan (xafa bo'lmoq);

گویم : از بنده مسکین چه گنه صادر شد
که دل آزرده شد از من غم آنم باشد.

Guyam: "Az bande-ye meskin če gunah sāder šod

Ke del āzurde šod az man yam ānam bāšad?" (G. 168-bet).

Mazmuni: *Deyman: "Biz miskin bandadan qanday gunoh o'tdiki, mendan ko'ngil ozurda bo'ldi, sababini ayt, men shuning fikrini qilay?"*

Asardan olingan misollar va lisoniy tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi zamon sifatdoshining qo'shma fe'llarning ism qismi sifatida kelishi kam uchraydi. Bir necha o'rinda روان (*rawān*) sifatdoshining qo'shma fe'lning ism qismi sifatida kelishi kuzatiladi:

در حال جوابی مختصر چنانکه مصلحت دید بر قفای ورق نبشت و روان کرد.

Dar hāl-e jawāb-e moxtasar čonān ke masalahat did bar yafā-ye waray nabešt wa rawān kard. (G. 138-bet)

Tarjimasi: *Qisqa javob tarzida maslahat ko'rgan narsasini varaqning orqasiga yozdi va jo'natib yubordi.*

Ayni shu so'zning *šodan* fe'li bilan o'timsiz qo'shma fe'l yasashi ham kuzatiladi:

این بگفت و پدر را وداع کرد و همت خواست و روان شد...

In begoft wa pedarrā wedā kard wa hemmat xāst wa rawān šod. (G. 293-bet).

Tarjimasi: *Buni aytdi va otasi bilan xayrlashdi, orzularining ro'yobini tilab, yo'lga chiqdi.*

Fors tilida sifatdoshlar ba'zi fe'llarning hozirgi zamon o'zagiga ^ā (o) suffiksini qo'shish orqali ham hosil qilinadi. "Guliston" da ham bir o'rinda mazkur sifatdosh qo'shimchasi vositasida hosil qilingan qo'shma fe'l ishtiroki kuzatiladi:

گفت: ترسم که بینا شود و دخترم را طلاق دهد.

Goftam: "Tarsam ke binā šawad wa doxtaramrā talāy dehad". (G. 230-bet).

Tarjimasi: *Dedi: "Ko'zi ko'radigan bo'lib, qizimga taloq berishidan qo'rqaman".*

Jumla tarkibida kelgan بینا (*binā – ko'ruvchi, ko'radigan*) so'zi دیدن (*didan – ko'rmoq*) fe'lining hozirgi zamon o'zagi ^ā (ā) suffiksini qo'shish bilan hosil qilingan: بین+آ= بینا (*bin+ā= binā*).

"Guliston" asarining lisoniy tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, qo'shma fe'llarning "sifatdosh+fe'l" modelidagi turi nisbatan kam uchraydi. Ushbu modeldagi qo'shma fe'llarning yasalishi va ravnaq topishi fors tili taraqqiyotining keyingi bosqichlarida davom etmagan.





Ammo sodda fe'llarning o'tgan yoki hozirgi zamon o'zagi ishtirokida qo'shma fe'llar yasalishi fors tili taraqqiyotining keyingi davrlarida nisbatan rivojlandi.

Adabiyotlar:

1. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – С. 83.
2. Alimova X.Z. Dariy tilida so'z yasalishi. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2019. – B. 173.
3. Ahmedova D.R. Fors tilida qo'shma fe'llarning yasalish usullari va unda o'zlashma so'zlarning tutgan o'rni // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2020. – № 5 (34). – B. 20-35. <https://doi.org/10.36078/1610694743>.
4. Ahmedova D.R., Xodiyeva N.T., Xabibullayeva M.R. Hozirgi zamon fors tilida sodda fe'l asosida tuzilgan qo'shma fe'llarning struktur tahlili // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. –2022. – B. 539. <https://cyberleninka.ru/article/n/hozirgi-zamon-fors-tilida-sodda-fe-l-asosida-tuzilgan-qo-shma-fe-llarning-struktur-tahlili/viewer>.
5. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2022). "Shavqi guliston" asari matnining tuzilishi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 192-195.
6. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). "Guliston" dagi "fe'l masdari+gereftan" modeli fe'l shakllari borasidagi nazariy qarashlar. Theory and analytical aspects of recent research, 2(16), 149-152.
7. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). ۛ (Be) prefiksi+ism+yordamchi fe'l modelidagi qo'shma fe'llar xususida. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 382-386.

